

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

2-son (6-jild)

2026

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ 2 (6) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2026

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Kurbanov Eldar Ermamatovich, Qormishov Mirjalol Jumamurod o'g'li</i> O'ZBEKISTONDA MILLATLARARO TOTUVLIKNI TA'MINLASHDA MILLIY MADANIY MARKAZLARINING INSTITUTSIONAL ROLI VA VAZIFASI (Sirdaryo viloyati markazlari misolida)	11-15
<i>Djurayev Ikrom Nematovich</i> SOPOLLI-KO'ZALI ARXEOLGIK QATLAMLARIDA SHIMOLIY DASHT QABILALARINING IZLARI	16-19
<i>Акбарова Камила Шухрат кизи</i> МЕЖДУ СЕКУЛЯРИЗАЦИЙ И МОДЕРНИЗАЦИЕЙ: СОВЕТСКАЯ ПОЛИТИКА В СФЕРЕ РЕЛИГИИ В УЗБЕКИСТАНЕ	20-26
<i>Olimov Islombek Ulug'bek o'g'li</i> SUV TA'MINOTI TIZIMINI RAQAMLASHTIRISH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR.....	27-31
<i>Sitorabonu Bobojonova</i> BUXORODA DASTLABKI MUZEYNING TASHKIL TOPISHI.....	32-36
<i>O'ralov Orzubek</i> GEOGRAFIK KASHFIYOTLARGA QADAR POLINEZIYA XALQLARINING RIVOJLANISHI VA DAVLATCHILIK INSTITUTLARINING SHAKLLANISHI TARIXI.....	37-45
<i>Qahhorov Shohjaxon Shodiyor o'g'li</i> ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSINING TARIXIY VA MA'NAVIY TAHLILI.....	46-50

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Madartov Bahrom</i> TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA O'ZARO MUNOSABATLARNI HISOBGA OLISH ASOSIDA STRATEGIK REJALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH	51-55
<i>Xudayberdiyev Otabek Absalomovich</i> XALQARO SAVDO MUNOSABATLARIDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA TA'MINOT ZANJIRI VA LOGISTIKA KONTROLLINGINING ROLI	56-64
<i>Ismailova Shaxnoza Uktamovna</i> O'ZBEKISTONDA INFLYATSION BOSIM OMILLARI VA ULARNING ISTE'MOL NARXLARI INDEKSIDA NAMOYON BO'LISHI.....	65-75
<i>Usmonov Maxsud Tulqin o'g'li</i> XIZMAT KO'RSATUVCHI SUBYEKTLARNING RAQOBATBARDOSHLIGINI BELGILOVCHI OMILLAR TIZIMINI ANIQLASH VA XIZMAT SIFATI QIYMAT TAKLIFI MIJOZ TAJRIBASI BREND KAPITALI HAMDA TEZKORLIK INDIKATORLARI ASOSIDA BAHOLASH	76-87

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Alimatova Nargis Abduxalilovna</i> INSON ONGINING TABIATINI O'RGANISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI	88-93
--	-------

<i>Utegenova Jamila Djolmurzayevna</i> O'ZBEKISTONDA BIOETIKANING SHAKLLANISHI VA FALSAFIY ASOSLARI	94-97
<i>Mamatqulov Rashid Pazilbekovich</i> JAMIYAT YUKSALISHIDA IJTIMOY NAZORATNING ROLI.....	98-102
<i>Shadimetov Mahmudjon Negmatjanovich</i> RUHIY KAMOLOT TUSHUNCHASINING FALSAFIY MAZMUNI VA TARIXIY ILDIZLARI .	103-108
<i>Ochilov Jamshid Abdurashidovich</i> KOSMOGEN, TEXNOGEN, ANTROPOGEN SIVILIZATSIYALAR MOHIYATINING ONTOLOGIK TALQINI	109-117
<i>Beshimov Xamidjon Sayidovich</i> KASABA UYUSHMALARI TIZIMIDA INSON QADRINI YUKSALTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	118-126
<i>Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna</i> ABU RAYHON BERUNIY ASARLARIDA FANLARNING INSON HAYOTIDAGI O'RNI MASALALARI	127-130
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Axmedov Oybek Saporbayevich</i> INGLIZ TILIDAGI SOLIQ-BOJXONA TERMINOLOGIK BIRLIKLARINI O'ZBEK TILIGA TARJIMA QILISHNING STILISTIK MUAMMOLARI.....	131-139
<i>Babadjanova Nazokat</i> OGAHIYNING SO'Z VA NUTQ MASALALARIGA OID QARASHLARINING MA'RIFIY MANBALARI	140-148
<i>Xo'jamqulov Anvar Jozilovich, Tog'ayeva Shoxnoza Elmurod qizi</i> ADABIYOTIDA "ABSURD" TUSHUNCHASI	149-153
<i>Abdullayeva Rahima Raimqul qizi</i> MEDIA YORDAMIDA IMIDJNING SHAKLLANISHI VA IJTIMOY FIKR	154-161
<i>Fozilov Arabjon Nozimjon o'g'li</i> CHET TILLARINI O'RGANISHDA SO'Z YODLASHNING AHAMIYATI	162-165
<i>Sarvinov Abdiraxmonova Davron qizi, Eshtuhtarova Bibigul Bektoshevna</i> THE SIGNIFICANCE OF STUDYING GENDER REPRESENTATION IN IDIOMS AND PHRASEOLOGICAL UNITS.....	166-171
<i>Raxmonova Dildora Mirzakarimovna</i> TAVALLO IJODIDA POETIK OBRAZ YANGILANISHINING IJTIMOY-TARIXIY VA ADABIY- ESTETIK OMILLARI.....	172-185
<i>Кодирова Зарина Баходировна</i> ХУДОЖЕСТВЕННОЕ СВОЕОБРАЗИЕ ДЕТСКОЙ ПРОЗЫ ДЭВИДА УОЛЛЬЯМСА: «DEMON DENTIST», «THE FING», «GANGSTA GRANNY».....	186-191
<i>Ismatilloev Jobir</i> "FIRDAVS UL-IQBOL"DAGI QASIDALARDA HUKMDORLAR MADHI	192-197
<i>Bozorova Nasiba</i> O'LMAS UMARBEOVNING "YOZ YOMG'IRI" QISSASIDA JINOYATNI O'RGANISHDA RETROSPEKSIYA USULI	198-203

<i>Ганиева Зухра Муратбаевна</i> ВЕРБАЛИЗАЦИЯ КОНЦЕПТА «СМЕРТЬ» В РУССКОМ ЯЗЫКЕ: КОГНИТИВНО-СЕМАНТИЧЕСКИЙ АСПЕКТ	204-212
--	---------

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich, Ro'ziboyev Asilbek</i> SUN'IY INTELLEKT QARORLARIDA ADOLATSIZLIK MUAMMOSI VA UNI BARTARAF ETISH YO'LLARI.....	213-218
<i>Bazarova Dildora Baxodirovna</i> ODIL SUDLOVNI TA'MINLASHDA "RAQAMLI SUD"	219-226
<i>Бабаев Джасхонгир Исмаилбекович</i> КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ГРАЖДАНСКО-ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ДОГОВОРА ПИТЬЕВОГО ВОДОСНАБЖЕНИЯ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН: ПУТИ МОДЕРНИЗАЦИИ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА	227-229
<i>Азходжаева Роза Алтыновна</i> РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ СИСТЕМЫ ЗДРАВООХРАНЕНИЯ.....	230-235
<i>Абдужамппоров Шахбоз Музаффар ўғли</i> ЭЛЕКТРОННЫЕ ДОКАЗАТЕЛЬСТВА В ДЕЛАХ О КИБЕРПРЕСТУПЛЕНИЯХ: ПРОБЛЕМЫ СБОРА, ФИКСАЦИИ И ПРАВОВОЙ ОЦЕНКИ	236-246
<i>Alijanov Ilhomjon Erkinjon o'g'li</i> PROKURATURA ORGANLARIGA QABUL QILISHDA NOMZODLARGA QO'YILGAN TALABLAR, XIZMATGA QABUL QILISH VA YOSH MUTAXASSISLAR BILAN ISHLASHGA DOIR FAOLIYATNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI	247-253
<i>Sarsenbaeva Aynura Tenelbay qizi, Tanirbergenov Sultanbek Bazarbaevich</i> FUQAROLARNING KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ VA ERKINLIKLARIGA QARSHI JINOYATLAR HUQUQIY MOHIYATI.....	254-258
<i>Qudratillayev Jaxongir Zokirjon o'g'li</i> INTERNETDAN FOYDALANISH HUQUQINING TARKIBIY QISMI	259-265
<i>Usmonaliyev Muslimbek Qurvonaliyevich</i> SPORTCHILARNI VAQTINCHALIK IJARAGA Olish SHARTNOMASINING SPORT HUQUQIDAGI O'RNI	266-272
<i>Mamadaliyev Boburjon Bahodirjon o'g'li</i> MAHALLIY BUDJETNI TARTIBGA SOLISHDA MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI IJRO ORGANLARINING VAZIFALARINING O'ZIGA XOS JIHATLARI.....	273-278
<i>Umarova Xolisxon Nomoz qizi</i> KORPORATSIYA DIREKTORLARINING FUNKSIONAL VAZIFALARINI AMALGA OSHIRISH BILAN BOG'LIQ JAVOBGARLIGI CHEGARASI	279-286
<i>Yaqubova Guli Qosimboy qizi</i> VOYAGA YETMAGANLAR BILAN BOG'LIQ ISHLARNI FUQAROLIK SUDLARIDA KO'RISHDA PROKURORNING ISHTIROKI TUSHUNCHASI VA UNING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI	287-294
<i>Ibrohimov Azimjon</i> XO'JALIK JAMIYATLARI BOSHQARUV ORGANLARI TIZIMIDA IJRO ORGANI: ROSSIYA FEDERATSIYASI MISOLIDA	295-301

<i>Choriyeva Xupshidabonu Xuppam qizi</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING "VASIYLIK VA HOMIYLIK TO'G'RISIDA"GI QONUNINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI.....	302-310
<i>Saidazimov Yusuf Sodiq o'g'li</i> MA'MURIY AKT. MA'MURIY AKTNING MAZMUN-MOHİYATI. GERMANIYA TAJRIBASI.....	311-316
<i>Tursunov Ilxomjon Salimovich</i> MUQADDAM SUDLANGAN SHAXSLAR TOMONIDAN SODIR ETILISHI MUMKIN BULGAN JINOIY HARAKATLARNI OLDINI OLISH VA MAXSUS PROFILAKTIKANI TAKOMILLASHTIRISH	317-321
<i>Xojanazarov Otabek Saydazimovich</i> OZODLIK DAN MAHRUM QILISH BILAN BOG'LIQ BO'LMAGAN JAZOLAR IJROSI USTIDAN PROKUROR NAZORATI: MILLIY VA XALQARO TAJRIBA.....	322-329
<i>Raxmedov Xurshid Ashrapxodjayevich</i> JINOYAT ISHINI QO'ZG'ATISH INSTITUTINING HUQUQIY TABIATI VA PROTSESSUAL AHAMIYATI	330-339
<i>Mansurova Xulkar Nabiyevna</i> FUQAROLIK PROTSESSINING TEZKORLIGINI TA'MINLASHDA SIRTDAN HAL QILUV QARORI CHIQRISHNING AHAMIYATI	340-349
<i>Begimova Nasiba Xudayberdievna</i> FARZANDLIKKA OLISH INSTITUTINING TADRIJIY RIVOJLANISHI	350-358
<i>Yo'ldoshbekov Anvar</i> NAQDSIZ HISOB-KITOB LAR VA RAQAMLI NAZORAT TIZIMLARINING HUQUQIY AHAMIYATI	359-367
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna</i> EVRISTIK TA'LIM NAZARIYASIDA TA'LIM OLUVCHINING MUSTAQIL FIKRLASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI	368-372
<i>Shukurov Mirjalol Norpulatovich</i> YAKKAKURASHCHILARNI TEXNIK USULLARIGA O'RGATISHDA KLAS TER USLUBIDAN FOYDALAN HOLDA TAKOMILLASHTIRISH	373-377
<i>Tilyabayev Kamil Zaitjonovich</i> O'ZBEK TILINING O'RGANILISHI VA DEKOLONIZATSIYASIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR: (DE)KOLONIAL HIS-TUYG'ULAR, MILLAT VA O'Z-O'ZINI ANGLASH	378-383
<i>Xudoyberdiyev G'iyosiddin Baxtiyor o'g'li</i> SHARQ MUTAFAKKIRLARNING FALSAFIY QARASHLARI ASOSIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA VALEOLOGIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING MUHIM PEDAGOGIK OMILI SIFATIDA.....	384-388
<i>Xo'jamqulov Rasulbek Qurbon o'g'li</i> KOMPYUTER GRAFIKASI TEXNOLOGIYALARINI LOYIHA ASOSIDA O'QITISHGA INTEGRATSIYALASHNING PEDAGOGIK SAMARADORLIGI	389-393
<i>Badalov Ulug'bek Xikmatovich</i> GEOGRAFIYA FANI DARSLARIDA ONLAYN GIS TIZIMLARIDAN FOYDALANISH.....	394-398

<i>Anvarjonova Nodirakhon Nasimbek qizi</i> IS EXPLICIT GRAMMAR INSTRUCTION STILL PEDAGOGICALLY JUSTIFIED? A CRITICAL RECONSIDERATION OF ITS ROLE IN CONTEMPORARY ENGLISH LANGUAGE EDUCATION.....	399-406
<i>Imomov Fozil Shakarbek o'g'li</i> TEMPERAMENT NAZARIYASI VA INDIVIDUAL PSIXOLOGIK XUSUSIYATLAR ASOSIDA GRAFIK FAOLIYATNI TASHKIL ETISH: PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA VA SAN'AT TERAPIYASI KONTEKSTIDA.....	407-412
<i>Курбанбаев Джавод Аминбаевич</i> КОГНИТИВНЫЕ И ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЕ ОСНОВЫ ЛЕКСИЧЕСКИХ ГЛОССАРИЕВ В ЯЗЫКОВОМ ОБРАЗОВАНИИ	413-417
<i>Eshnazarova Farida Jo'raqulovna</i> JAMOADA LIDERLIK VA UNING SIFATLARI (SPORT JAMOALARI MISOLIDA).....	418-421
<i>Yuldasheva Muhayyo Alimbaevna</i> AVTOMOBILLARDA TASHISH VA HARAKAT XAVFSIZLIGINI TASHKIL ETISH FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY TA'LIM VOSITALARINING O'RNI.....	422-429
<i>Umarov Komil, Sobirov Orif, Sultanov Rustam, Egamberdiyev Abdullo</i> YUQORI MALAKALI GANDBOLCHILAR MASHG'ULOTLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	430-435
<i>Doniyorova Gulnoza Anvar qizi, Kurbanova Gulnoz Negmatovna</i> INTERAKTIV VOSITALAR VA AXBOROT RESURSLARIDAN FOYDALANISH ORQALI KASBIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI.....	436-441
<i>Nafasov Arslon Komilovich</i> PEDAGOGIK TA'LIM KLASTERI YO'NALISHIDA TARIX O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH SAMARADORLIGI.....	442-447
<i>Pulatova Muxabbat Egamberdiyevna, Qalandarova Sevinch Aqiljon qizi</i> BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING KOMMUNIKATIV SALOHIYATINI SHAKLLANTIRISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH	448-453

Received: 15 January 2026
Accepted: 2 February 2026
Published: 14 February 2026

Article / Original Paper

THE CONCEPT OF "ABSURD" IN LITERATURE

Khojamkulov Anvar Jozilovich

Acting Associate Professor of the Samarkand Branch
of the Tashkent International Kimyo University

Tog'ayeva Shoxnoza Elmurod qizi

"Japan International School"
international school teacher

Abstract. This article discusses the absurd interpretation of reality using the example of writer Omon Mukhtor's novel "Ffu." The general content of the article consists of such issues as the human desire to find one's "self," the meaninglessness of life, the desire for control in people ("philosophy of slavery"), the desire to free one's life from rigid stereotypes.

Keywords: absurd, absurd interpretation, narrative-novel, character, innovation, existentialism, religious existentialism, atheistic existentialism.

ADABIYOTIDA "ABSURD" TUSHUNCHASI

Xo'jamqulov Anvar Jozilovich

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Samarqand filiali dotsenti v.b.
E-mail: a.xujamqulov@mail.ru

Tog'ayeva Shoxnoza Elmurod qizi

"Japan international school"
xalqaro maktabi o'qituvchisi,
E-mail: shaxnozatogayeva25@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada yozuvchi Omon Muxtorning "Ffu" romani misolida voqelikning absurd talqini xususida so'z boradi. Insonning o'z "men"ini topishga intilishi, hayotning ma'nosizligi, insonlardagi boshqarilishga bo'lgan istak ("qullik falsafasi"), hayotini qotib qolgan stereotiplardan xalos etishga xohish kabi masalalar maqolaning umumiy mazmunini tashkil etadi.

Kalit so'zlar: absurd, absurd talqin, rivoyat-roman, xarakter, innovatsiya, ekzistensializm, diniy ekzistensializm, ateistik ekzistensializm.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I2Y2026N21>

Badiiy adabiyotni hayotning in'ikosi sifatida tariflar ekanmiz, undagi barcha voqeliklarni, xususan, hayot haqiqatini boricha, ortiqcha bezaklarsiz, asliyatida qanday bo'lsa, shundayligicha tasvirlash jahon adabiyoti ta'sirida milliy adabiyotimizda ham bo'y ko'rsatayotganligiga guvoh bo'lamiz. Bu kabi asarlar insonning o'z "men"ini topishga intilishi, hayotning ma'nosizligi, insonlardagi boshqarilishga bo'lgan istak ("qullik falsafasi"), hayotini qotib qolgan stereotiplardan xalos etishga xohishning mavjudligi-yu, biroq oxir-oqibatda hech qanday innovatsiya (yangilanish)larga ham ko'nika olmasligi va boshqa shu singari mavzular

bilan xarakterlanadi. Soʻz yuritmoqchi boʻlganimiz, Omon Muxtor ijodida ham bunga oʻxshash mavzular koʻp uchraydi. Yozuvchining “Ffu” romanida voqelikning oʻzgacha tasviri alohida ahamiyatga ega. Unda bosh qahramon – oddiy quruvchi Mulla Toshpoʻlat va uning yolgʻiz farzandi Toshtemirning absurd (maʼnisiz) hayotda maʼno izlashga boʻlgan intilishlari va buning oqibatida ularning ruhiyatidagi evrilishlar tasvirlangan. Shu oʻrinda absurd haqida ikki ogʻiz soʻz: “**absurd** (lotincha: *ab* – “tashqari” va *surdus* – “gung”) deb jiddiy qaralmaydigan, mantiqsiz, asossiz yoki aqlsiz bir narsa, holatga aytiladi. Keng maʼnoda absurd “tuturiqsizlik” va “safсата” atamalarining sinonimi sifatida ishlatilishi mumkin. Biroq tor maʼnoda absurd maqsadsiz yoki sifatsiz fikrlashdan kelib chiqqan qaror-xulosani bildirsa, tuturiqsizlik noʻrin solishtirishni, safсата esa lingvistik maʼno yoʻqligini anglatadi”. [1.1] Shuningdek, “absurd – muayyan narsa, voqea yoki xulosaning ichki ziddiyati, notoʻgʻriligi va yasamaligini ifodalovchi tushuncha. Mantiqda xulosa va hukmlarning haqiqatga mos kelmasligini, sanʼat va adabiyotda esa soxta holat va xususiyatlarni aks ettiradi”. [2.8] Bilamizki, badiiy adabiyotda “absurd” tushunchasi fransuz adibi va faylasufi Alber Kamyu nomiga bogʻlab taʼriflanadi. “Nufuzli doiralarda “Yevropa vijdoni” deb tan olingan Alber Kamyu Gʻarb adabiyotining gumanizm yoʻliga yana qaytib kelishiga va maʼnaviyatning astoydil qadrlanishiga katta hissa qoʻshdi. Yangi tarixiy sharoitda postmodernizm tarafdorlari ham gumanizm va maʼnaviyat tomonga burilish yasadilar”. [3.6] Odatda, kimki absurd haqida fikr yuritsa, birinchi galda shu manbani (*Muallif izohi: Alber Kamyuning «Sizif haqida afsona» nomli essesi nazarda tutilmoqda*) tilga oladi va unga tayanib mulohaza yuritadi. Kamyuning oʻzi ham «Sizif haqida afsona» degan sarlavhadan keyin «Absurd haqida esse» deb izoh bergan. Adibning ushbu asari yaratilgan davridayoq mashhurlikning shohsupasidan joy olgan va hanuzgacha oʻsha mavqeyini saqlab kelayotir. Ikkinchi jahon urushining avji qizigan yillarida bosilib chiqan bu asar (1942) fashist bosqinchilariga qarshi kurashga chaqiriq, isyon sifatida qabul qilingan. Bundan tashqari, mazkur esse oʻz mazmun-mohiyatiga koʻra Fransiya falsafasi tarixiga «ekzistensializmning ateistik manifesti» boʻlib kirgan. Shu bilan birga, aynan shu esse koʻpchilik tomonidan faylasuf yozuvchi Alber Kamyuning badiiy asarlarini oʻqish, uqish va tushunishning falsafiy kaliti deb ham tan olingan. Darhaqiqat, bu kalit oʻquvchiga Kamyuning ijod xazinasi eshigini ochib berishga xizmat qiladi. Darvoqe, Kamyu oʻzining zamonga, jamiyatga, dinga, fashizmga, siyosatga boʻlgan munosabatini ifoda etish uchun nega aynan eramizdan ancha avval dunyoga kelgan Sizif haqidagi mifga murojaat qildi? Oʻz salafarlari va zamondoshlari F.Nitshe, Z.Freyd, E.Fromm, J.P.Sartr, F.Kafkalar bilan munozaraga kirishib, falsafiy mulohazalarini bayon etaversa boʻlmasmidi? Bunga uning bilimi ham, quvvai hofizasi ham yetardi-ku! Nazarimda, boshqalardan farqli oʻlaroq, Sizifga murojaat qilishida Kamyuni ham faylasuf, ham ijodkor sifatidagi maʼnaviy-ruhiy ehtiyoji daʼvat etgan. Sezishimcha, Sizif xarakteridagi oʻjarlik, qasdma-qasdiga oʻzining haqligini isbotlashga urinish Kamyuning hayotiy idealiga mos kelgan. [5.1] “Ffu” romani voqealarining rivoyatga oʻxshashligidan kelib chiqib, aytish mumkinki, asar tahlilida xuddi Kamyuda boʻlgani kabi Omon Muxtorda ham uzoq tarixga murojaat qilish koʻzga tashlanadi. “Ffu” romani syujetiga eʼtibor qaratar ekanmiz, muallifning oʻzi uni “Rivoyat-roman” deb ataydi va buni shunday izohlaydi: “Bir kuni yangi boʻlib koʻringan dunyo – ertaga eskira boshlaydi”. [4.5] Asar bosh qahramoni quruvchi mulla Toshpoʻlat yakka-yu yolgʻiz, ulgʻayib qolgan farzandi Toshtemirning joriy holatidan norozi. Ayni shu damlarda u bozorda tasodifan sotuvchilar qatorida “boshiga qoʻqon doʻppini qiyshiq qoʻndirgan chuvak yuzli zot” [4.12] – Haydar Maxsumni uchratib qoladi. Boshqa sotuvchilardan farqli oʻlaroq, u aql

sotuvchi kishi edi. Hayotini behuda o'tkazayotgan, ota-bobolaridan qolgan barcha an'analarga "tupurib qo'ygan" aqlsiz o'g'li Toshtemirga zora foydasi tegishini umid qilib, mulla Toshpo'lat Haydar Maxsumdan aqlining yarmini sotib oladi. Toshtemir, odatda, faqat uchta so'z – xursand bo'lganda "Oh-oh", taajjublanganda "Iy-y" va jahli chiqqanda "Ffu" so'zlaridan foydalanardi, xolos. Otasi bozordan unga aql sotib olgandan keyin u birdan tilga kiradi. Endi, "Oh-oh", "Iy-y" so'zlaridan foydalanmas, ammo har-har zamon "Ffu"dan foydalanib turardi. Har doim o'zining dunyosida yashab kelgan Toshtemir jamiyatdagi oddiy odamlar qatori "normal" hayotga qaytadi. Hatto o'zi haqida: "Inson – o'zini qafasdan erkinlikka chiqarayotgan qush", –deydi. [4.20] O'zi va ota-bobolari kabi quruvchi-me'morlik kasbining boshini tutganligi uchun mulla Toshpo'lat o'g'lidani minnatdor bo'ladi. Biroq uning quvonchi uzoqqa cho'zilmaydi. Xalq orasida tezda obro'si oshib, o'zining atrofiga barcha quruvchi va yigitlarni yig'ib, oddiy odamlarni nazar-pisand qilmay, hatto o'zini yurt boshi – shohlikka munosib ko'ra boshlagan o'g'li Toshtemir zolim insoga aylanadi. Atrofiga yigitlarni to'plab, turli zo'ravonliklar qila boshlaydi. Ustozi usta Mahmudning nasihatlari ham asqatmaydi. Ustozining go'zal qizi, sevgani – Nigorga nisbatan ham adolatsiz munosabatda bo'ladi. Bu kabi holatlardan bezigan ota – mulla Toshpo'lat so'nggi chora sifatida o'sha chuvak yuzli zot – Haydar Maxsumni qidirib topadi va o'g'li uchun xarid qilgan aqlini qaytarib sotib olishni so'rab, yolvoradi. Haydar Maxsumning o'z aqlini qaytarib sotib olishi u ogohlantirgani kabi og'ir oqibatlarga olib keladi: Toshtemir zindonband etiladi. Endi mulla Toshpo'lat uchun o'g'li qurib bergan saroy, hashamatli hayot tatimaydi. O'g'lining gunohini so'rab shohga borishi ham foyda bermaydi. Yolg'iz o'g'lidani ham ayrilib qolish xavfi uni ming azoblar bilan o'rtaydi va ayni damda, u chorasiz ham edi.

Zindonda yotgan Toshtemirga aql "bitadi". Otasi, ustoz va sevgilisiga qilgan zulmlari uni iztirobga soladi. Ma'nisiz hayotdan ma'no izlab boshlaydi. Bir vaqtlar ustoziga aytgan gaplarini eslaydi: "Jahl chiqsa, aql qochadi. Qizishmang, peshvo. Mendan bir ayb o'tgan bo'lsa, ayting, eshitay... Men uchun inson – olamning gultoji, borliqning shohi! O'z aqli, o'z kuchiga ishonadi! Osmondan marhamat, ehson kutmaydi! Dunyoning to'rt kunlik ekanini bilib, "Ffu" deb yuraveradi. Bir marta berilgan hayotni mashaqqatlardan qo'rmay, rohat-farog'atda o'tkazadi... Men shunga intildim. Sizlar yasagan qolipga sig'madim. O'z yo'limdan bordim! Shu mening gunohimmi?!" [4.26] Toshtemir o'zining hayotda mavjudligi – ekzistensializmini anglab yetadi. Shu o'rinda, ekzistensializmning ham ikki turi borligini hisobga olmoq kerak. Ya'ni, "ekzistensializm (lot. – yashash, mavjudlik), mavjudlik falsafasi – falsafadagi yo'nalish. XX asr boshida Rossiyada, birinchi jahon urushidan keyin Germaniyada, ikkinchi jahon urushi davrida Fransiyada, urushdan keyin boshqa mamlakatlarda paydo bo'lgan. S.Kyerkegor ta'limoti, hayot falsafasi, fenomenologiya ekzistensializmning g'oyaviy manbayi hisoblanadi. Diniy ekzistensializm (K.Yaspers, G.Marsel, N.A.Berdyayev, L.Shestov, M.Bubur) va ateistik ekzistensializm (M.Haydegger, J.P.Sartr, A.Kamyu) bir-biridan farqlanadi. Markaziy tushunchasi – ekzistensiya (inson mavjudligi). Inson mavjudligi, asosan, g'amxo'rlik, qo'rqish, qat'iylik, vijdon kabilarda namoyon bo'ladi. Dahshat, qo'rquv, o'lim inson yashashining asosini tashkil etadi. Inson o'zini ekzistensiya sifatida anglagandan keyin erkinlikka erishadi, bu erkinlik o'z-o'zini, o'zining mohiyatini tanlashdan iborat bo'lib, insonga olamda yuz berayotgan barcha narsa uchun mas'uliyat yuklaydi". [6.1] Toshtemirning ekzistensiyasi zindonga tushishidan oldin ateistik xarakterda ekanligini uning zo'ravonlik ishlari avjiga chiqqanda uni bu yo'ldan qaytarishga uringan otasi – mulla Toshpo'lat bilan bo'lgan dialogda ko'rish mumkin:

– ... Tushimga Zulfizir (*M.I.: Toshtemirning vafot etib ketgan onasi*) kiradi! Men qiyomatda onangga nima deyman?!

- Qiyomatga balo bormi?! Ffu! Onamga nima deyishingiz kerak?!
- Onang seni shu holda ko'rsa...
- Mening holim shunchalik xarob ekanmi?!
- Xarob... Imorat ham odamning husni. Kiyim! Sen ne-ne obidalarni buzdirib, hammani katalakka tiqding! Hunar degan narsa qolmadi! Hunarmand degan odamni kunduzi chiroq yoqib topolmaysan! [4.32]

O'zi uchun hayotda aniq bir missiya topa olmayotgan Toshtemirning izlanishlari quyidagi o'rinlarda yanada konkretlashadi: "Dunyoga nima uchun keldim?! Nega yashayapman?! Hayotda biron ma'no bormi yoki bu noma'lum bir nasibami?! Men kimman?! Makonim qayerda?! Quyundek tentirab, borayotgan manzirim qaysi?! Toshtemir shular haqida o'ylar edi.

Maqsad na edi – jahona kelding?! –

kayfiyatini bayon etib ket..." [4.33]

Xuddi ushbu savollar Toshtemirning zindonband bo'lishi arafasida ham uning xayoliga keladi [4.45] va o'quvchida Haydar Maxsumning o'z aqlini qaytarib sotib olishi oqibatida shu holat ro'y berdi, degandek taassurotni yuzaga keltiradi. Toshtemirning zindondagi holati, o'ylari uning ruhiyatidagi o'zgarishlarga sabab bo'ladi. Endi uning ateistik ekzistensial diniy ekzistensialga ko'chadi. Asarda Toshtemirning o'ylari bahonasida shunga monand rivoyat keltiriladi: "Iblis deydi, havoyi nafsga berilib yashasalar – butga topinish shart emas! Men ularni uch yo'sinda yo'ldan ozdiraman:

1. Harom, nohaq foyda topishga ruju orqali.
2. Yiqqanlarini noloyiq ishlarga sarflash orqali.
3. Loyiq bo'lgan ishlarga harj qilishdan qaytarish orqali". [4.48] Ushbu rivoyat Toshtemir hayotining zindonga qadar bo'lgan aynan modeli edi. Biroq uning zindondagi hayoti ruhiyatidagi tub burilishlarga sabab bo'ldi, deyish mumkin. Hayotdan ma'no izlashga bo'lgan, dunyoning o'tkinchi ekanligi haqidagi o'ylari quyidagi o'rinlarda ko'rinadi:

"Bilmadimki, bu jahon foni-u, kajraftor ekan,

Yaxshilar doim yomonning hojatiga zor ekan". [4.50]

"Dunyoning o'zi kaftdagi chang; chuqur nafas tortib, ffu! – desang, uchadi-ketadi!" [4.54]

"Men osiy bandaman, gunohim ko'p! Endi dunyoga etak silkidim. Ffu... Dunyo qattiq mehr qo'yishga arzimas ekan! Bir-biriga zulm qilishdan, egrilikdan asranib, poklanmoqchiman. Axir har narsaning javobi bor..." [4.58]

Alber Kamyuning "Sizif haqida afsona"sida bo'lgani kabi "Ffu" ham yaxshilik bilan tugaydi: mamlakat shohining qizi o'g'il farzand ko'rganligi xursandchiligidan hamma mahbuslar, jumladan, dor tagiga keltirilgan Toshtemir ham jazodan qutulib qoladi. Toshtemirning keyingi hayoti esa odamlarga yaxshiliklar qilish bilan o'tadi. Xullas, yozuvchi Omon Muxtor asar qahramoni Toshtemir misolida kishining hayotda o'z mavjudligi – "men"ini topishga intilishi, umrning o'tkinchiligi, absurd hayotda ma'no izlashga bo'lgan kurash g'oyalarini ifoda etishga harakat qiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Absurd>
2. Falsafa (qomusiy lugʻat). – T.: “Oʻzbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti, 2004-yil.
3. Pirimqul Qodirov. Maʼnaviyat, modernizm va absurd. // “Oʻzbekiston adabiyoti va sanʼati” gazetasi, 2004-yil, 12-son.
4. Omon Muxtor. Ffu. Roman. – T., Sharq, 1997.
5. Solijonov Yoʻldosh. Sizif va absurd. // “Jahon adabiyoti” jurnali, 2010-yil, 1-son. (<https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/maqolalar/yo-ldosh-solijonov-sizif-va-absurd>)
6. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Ekzistensializm>

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 2 (6) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).